



Mu'tabarxon MADAYEVA,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi o'qituvchisi
motabar77m@gmail.com,

TDShU kengash ilmiy kotibi, PhD M.R.Po'latova taqrizi asosida

“SAB'AI SAYYOR” DOSTONDAGI ARAB SO'ZLARINING POETIK TIL SIFATIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Sab'ai sayyor” dostoni va undagi arabcha so'zlarning poetik til sifatidagi o'rni, arab so'zlarining baytlarda, misralarda foydalanilishi, o'zgacha ma'no berishi leksik-semantik jihatidan talqin qilish ularning mazmun va shakl berishini izchil o'rganish filologiya sohasida muhim ilmiy ahamiyat kasb etgani haqida hikoya qiladi. Chunki Alisher Navoiy ijodidagi arabizmlarni leksik-semantik jihatidan o'rganish XV asr oxirlarida o'zbek adabiy tilning leksik tarkibi, boshqa xos jihatlari yoritib berish imkonini beradi. Bunda poeziyaning turli xil yo'nalishlari, badiiy mavqe'i, boshqa turk, fors so'zlari bilan birga kelgandagi mazmuni ularni o'zaro munosabati va vazifalari muhimligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: leksik-semantik, poetika, arabizm, talqin, ohangdosh misralar.

РОЛЬ АРАБСКИХ СЛОВ КАК ПОЭТИЧЕСКОГО ЯЗЫКА В ЭПОСЕ "САБАИ САЙЁР"

Аннотация

В данной статье рассматривается эпос «Сабаи сайёр» и роль арабских слов в нем как поэтического языке, употребление арабских слов в строках и стихах, лексико-семантическая интерпретация их иного значения, а также последовательное изучение их содержания и формы имеющие большое научное значение в области филологии. Потому что лексико-семантическое изучение арабизмов в творчестве Алишера Навои позволяет пролить свет на лексический состав и другие особенности узбекского литературного языка конца XV века. При этом даются сведения о значении разных направлений поэзии, художественной позиции, значении при сочетании с другими турецкими и персидскими словами, их взаимосвязи и функциях.

Ключевые слова: лексико-семантика, поэтика, арабизм, интерпретация, мелодичные стихи.

THE ROLE OF ARABIC WORDS AS A POETIC LANGUAGE IN EPIC "SABAI SAYOR"

Annotation

This article examines the epic “Sabai Sayor” and the role of Arabic words in it as a poetic language, the use of Arabic words in stanzas and verses, the lexical-semantic interpretation of their special meaning, as well as the consistent study of their content and form, which have great scientific significance in field of philology. Because the lexical-semantic study of Arabisms in the works of Alisher Navoi allows us to explain the lexical composition and other features of the Uzbek literary language of the end of 15th century. At the same time, information is given about the meaning of different directions of poetry, artistic position, meaning when combined with other Turkish and Persian words, their relationship and functions.

Key words: lexico-semantics, poetics, Arabism, interpretation, melodic poetry.

Alisher Navoiy asarlari o'zbek xalqi tarixida haqiqiy poetik til sifatida tanildi. O'rta Osiyoda XV asrda arab tili, fors tili adabiy ilmiy til hisoblangan. Shu davrlarda ijod qilgan olimlar qay millat vakili bo'lmasin shu ikki tilda asarlar yozar edilar, garchi Mirzo Ulug'bek saroyida shoir Sakkokiy she'rlari o'zbek tilida bo'lib ko'pchilik tinglovchilarga zavq bag'ishlagan bo'lishiga qaramay o'zbek tili va uning poeziyasi e'tibordan yiroq edi. Asta sekinlik bilan o'zbek adabiyoti buyuk adib Alisher Navoiyning yetakchiligi, shijoati bilan uning yaratgan asarlari, san'at namunalari asnosida yuqoriga ko'tarila boshladi. Navoiy asarlari bilan o'zbek adabiyoti yuksala boshladi. Shu davrda Navoiy buyuk “Xamsa” dostonini yaratdi. Nizomiy va Xusrav Dehlaviy bilan musobaqa tariqasida yozilgan “Xamsa” besh dostonidan iborat bo'lib 50 ming misraga yaqin she'rni o'zida mujassam etgan. “Xamsa” dagi “Sab'ai sayyor” dostoni boshqa dostonlardan farqli qoliqlash uslubidan foydalanilib, yetti musofirning yetti hikoyati bayon etiladi. Navoiy “Xamsa” sini tashkil etgan dostonlarning to'rtinchisi va eng ajoyibi “Sab'ai sayyor”dir. Navoiy bu go'zal dostonni “Sab'ai sayyor” deb atagan bo'lsa ham, navoiyxonlar va “Xamsa” noshirlari unga “Haft manzari Bahrom” deb nom qo'yg'alar, doston shu so'nggi nomi bilan shuhrat qozongan [1]. “Sab'ai sayyor” – 10016 misradan

iborat hayotning rang-barang lavhalarini mujassam bo'lgan katta bir doston. Bu doston Navoiyning san'atkorlik mahoratini, uning poyonsiz keng fantaziyasini, turmushning ko'p dilrabo va badnamo manzaralarini juda yaxshi bilganini ko'rsatadigan badiiy ijod namunasidir. Badiiy asarning qimmatini tayin etishda uning kompozitsiyasi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun “Sab'ai sayyor” haqida so'zlaganda eng avval uning go'zal va maroqli kompozitsiyasini ayrim ravishda ko'rsatib o'tish kerak. Bu doston o'zining ravon uslubi, rangdor tili va kishini qoyil qoldiradigan chuqur ma'noli tashbehleri, istioralari va hikmatli misralari bilangina emas, balki favqulodda mahorat bilan ishlangan kompozitsiyasi bilan ham o'quvchini hayratda qoldiradi [1]. Ushbu doston Bahrom va Dilorom tarixini bayon qilish bilan darveshlar so'zlab bergan hikoyatlar asosida Sharqda mashhur bo'lgan afsona, rivoyatlar bayon etiladi. Bir rivoyat voqeasida boshqa rivoyat hikoya qilinadi. Asarning oxirida bayon qilinayotgan voqea dastlabki voqea bilan bog'langan holda yakunlanadi. Bahrom Go'ning harbiy yurishlari, ishqiy sarguzashtlari turli xalqlar folklori va adabiyotida Bahrom Go'r obrazi bilan bog'liq afsona, hikoya va dostonlar juda keng tarqalgan bo'lib, Bahromning hayoti haqidagi ma'lumotlar Eron shohlari tarixiga bag'ishlangan

“Siyaru muluk il-furs”, “Tarixi tabariy”, “Tarixi muluki ajam” asarlarida batafsil keltirilgan [2].

“Sab’al sayyor” she’r bilan yozilgan asosan mustaqil va shu bilan birga yagona g’oya ipiga chizilgan yetti go’zal hikoyadan iborat bo’lib, o’rta asr romanining eng porloq namunalaridan biridir. Unda Navoiyning ham shoirlik va ham hikoyanavislik sohasidagi genial qobiliyati yaqqol ko’rinadi.

Dostonning tradision muqaddimasida so’z ta’rifi, sochma-tizma masalasi, masnaviy ustodlari madhidan keyin shoir “Sab’al sayyora”ning yaratilishi sababini bayon qiluvchi alohida bob ajratadi. Unda bu ulug’ dostonni yozishga qanday kirishganini, bu to’g’rida o’zining reja va g’oyalarini aytib o’tadi. Go’yo Navoiy tushida yetti ajoyib qasr va uning ichida yetti go’zal ko’rgan, bu go’zallardan afsonalar tinglagan. Unga duch kelgan nuroniy chol bu ko’rgan eshitganlarining ma’nosini tushuntirib, ularni doston qilib yozishga undagan. Navoiy uyg’onib bu tushning ta’birini surishtiradi. Ta’birchi bu tushida ko’rganlarini doston qilib yozishini tavsiya qiladi. Bundan so’ng shoir yana so’zni Nizomiy va Xusrav Dehlaviylarga burib, ularni o’z “Xamsa” larining to’rtinchi dostonini yozish munosabati bilan maqtaydi va kamchiliklarini ko’rsatadi. O’zining bu dostonini yozish niyatini va buning qiyin bo’lishiga qaramay muvaffaqiyat qozonishiga umid bog’laganini bildirib o’tadi [3].

“Sab’al sayyor” dostoni o’zida juda ko’p arabcha so’zlarni mujassam etgan. Arab so’zlarining baytlarda, misralarda foydalanilishi, o’zgacha ma’no berishi leksik-semantik jihatidan talqin qilish ularning mazmun va shakl berishini izchil o’rganish filologiya sohasida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki Alisher Navoiy ijodidagi arabizmlarni leksik-semantik jihatdan o’rganish XV asr oxirlarida o’zbek adabiy tilining leksik tarkibi, boshqa xos jihatlarni yoritib berish imkonini beradi. Bunda poeziyaning turli xil yo’nalishlari, badiiy mavqe’i, boshqa turk, fors so’zlari bilan birga kelgandagi mazmuni ularni o’zaro munosabati va vazifalari muhim hisoblanadi.

[3]حلی کردن صفت لیغ ایلا دیلار خصمی غه یکجهت لیغ ایلا دیلار

Xayli gardun sifatlig’ ayladilar,

Xasmig’a yakjihatlig’ ayladilar [4].

Ushbu “یکجهت” so’zida “یک” fors tilida “bir” so’zini anglatadi, “جهت” arabcha “جهة” so’zi “taraf” ma’nosini anglatadi, ushbu baytda “dushmanlariga qarshi birlashdilar, jipslashdilar” degan ma’noni beradi[5] Yuqorida aytilganidek, arabiy so’z fors so’zi bilan o’zaro birikib o’ziga xos ma’noni anglatyapti.

Binobarin, o’zbek tili rivojlanishi tarixida arabcha o’zlashmalar o’rta asrlardayoq sezilarli grammatik assimilyatsiyaga uchradi, keyinchalik uning nisbatan to’laqonli birligi sifatida yangi til materiali doirasida rivojlanish jarayoni sodir bo’ldi. Arabcha so’zlarning kirib kelishi o’rta asrlar jamiyati hayotining barcha sohalarida sodir bo’ldi. Arab leksemalari o’zbek tilining yordamchi fe’l leksemalari yordamida murakkab fe’l shakllar hosil qiladi. Arabizmlar

مستمع	tinglovchi, eshituvchi
عرض	izhor, bayon, murojaat, istak, iltimos; shikoyat
خاطر	es, yod, xotira
معمور	obod, obodon, ma’mur
تصویر	tasavvur, surat chizish, tasvirlash
مشهور	hammaga ma’lum bo’lgan, shuhrat topgan

Aslini olgandan shoir arab so’zlarini o’rniga o’zbek so’zlarini qo’llashi mumkin edi, lekin qofiya, mazmun jihatidan ma’noning to’liq berish yo’lini arabizm orqali ifodalab baytlarni san’at darajasiga ko’targan. Navoiy arab tilini mukammal bilishi uning ijodiga yana xusnkor noodatiy uslub bilan yozilgan baytlarida aks etgan.

“Sab’al sayyor”dagi baytlarda, oddiygina tasvirlash g’oyasi zamirida go’zal adabiy san’at vositalarini nafis mahorat ila arab so’zlari bilan shoirning o’z imkoniyati darajasida ifodalagan irod namunasi namoyon bo’ladi. “Sab’al

semantikasini o’zgartirish masalalari ham komponent va qiyosiy tahlil usulida o’rganildi. Arabizmlar semantikasidagi o’zgarishlar semantik kengayish, semantik torayish, asliyatdan semantikani olib tashlash, asliyat semantikasiga qarama-qarshi qo’yish orqali sodir bo’ladi[6]. Bunga “Sab’al sayyor” dostonida keltirilgan bir o’zakli so’zlarni misol qilish mumkin.

Qildi har nav’kim edi mumkin,

Sarv gulchehra shaynini sokin.

Mazmuni: Sarv gulchehraning hovurini pasaytirib, o’z taklifiga ko’ndirish uchun qo’lidan nima kelsa, hammasini qilib ko’rdi[7].

Bo’lsa ul chahda nechakim sokin.

Qochmog’i bo’lmag’ay anga mumkin.

Mazmuni: unda gunohkor kishilarni hibs qiladigan bo’lsalar, chohning ichidan hech qachon hech yerga qochib qutilish mumkin emas edi [4.436].

Yuqoridagi ikki misrani talqin qiladigan bo’lsak, birinchi misrada ساکن - pasaytirish, sekinlashtirish ma’nosida kelsa, ikkinchi misrada ساکن so’zi “turuvchi, shu yerda bor” degan ma’noni anglatyapti. E’tiborli jihati shundaki, bir o’zakli so’zni semantik keng ma’noda qo’llash uslubi namoyon bo’lyapti.

U.Vaynrxar birinchilardan bo’lib “til aloqalari” atamasiga ilmiy ta’rif berdi. Olimning ta’kidlashicha, ikki yoki undan ko’p tillar bir shaxs tomonidan navbatma-navbat ishlatilishiga ular iste’molda bo’ladi[8]. Alisher Navoiy yoshligidan fors-tojik tilida adabiyotlar o’qib katta bo’lgan, uning tillarga bo’lgan qiziqishi arab tilini o’rganishga yetaklaydi. Islom diniga bo’lgan e’tibor, Qur’oni karimni yod olishi, o’z asarlarini diniy e’tiqod bilan boyitgani, oyat va hadislarni ko’p o’qib arab ilmini chuqur o’zlashtirganini anglatadi. Chunki Navoiy o’z asarlarida sof arab so’zlarini o’z o’rnida qo’llab asarga bezak bergan va arab so’zlarining o’zbek so’zlari bilan birga ishlatib o’z o’rnida o’zbek tilini arabiy o’zlashmalar bilan boyitgan. A.K.Borovkov “Alisher Navoiy o’zbek adabiy tilining asoschisi” deb nomlangan ilmiy tadqiqotida Navoiyning o’zbek adabiy tilining shakllanishi va uning rivojlanishidagi xizmatlarini bayon qilib, XV asrdagi o’zbek adabiy tili Navoiy ishlatgan arabiy, turkiy va forsiy so’zlar bilan birmuncha boyiganini ta’kidlagan[9]. Darhaqiqat, “Sab’al sayyor” dostonida foydalanilgan arabcha so’zlar bilan o’zbekcha so’zlarni bir biriga bog’lab o’ziga xos kompozitsiya yaratgan.

مستمع بولسا عرض ایٹی آنی مینی دیرلار جهان ایلی مانی

کوب بیلک برلا خاطریم معمور لیک تصویر ایلا بولوب

مشهور [2]

Mustami’ bo’lsa arz etay oni,

Meni derlar jahon eli Moniy [4].

Mazmuni: Meni eshitishni lozim ko’rsalar, arzimni bayon etayin, meni butun xalq Moniy deb ataydilar, xotiram ko’p bilimlar bilan boyigan bo’lsa ham, rassomlik bilan dunyoga mashhur bo’ldim”.

sayyor” dostonida arab so’zlar ma’nosini bir necha turlarga bo’lish mumkin:

- shoirning fikri arab so’zlari orqali yanada joziba va nafislik bilan ifodalanishi.
- arab tilida bir o’zakli so’zning o’zbek tilida o’zaklar asosida bir oz tilga xos o’zgarish bo’lganida ham so’z bir necha ma’nolarni anglatishi;
- arab tilida bir o’zakli bir xil talaffuz bilan aytiladigan so’zlar asarda turli ma’no anglatishi;
- arab tilidagi so’zlar qofiyaga mos, mazmunga xos

bo'lgani sababli foydalanilgani;

“Sab'ai sayyor” dostoni misolida arabizmlarni leksik

jihatdan o'rganish o'zbek tilidagi so'zlarning shakl, ma'no
jihatidan yana keng jihatlarni talqin qilishga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Жалолов Т. “Хамса” талкинлари. – Т.: Фафур Фулом, 1968
2. 1956 – عليشير نوايي. خمسة. سبعة سيار. طيار لاوچي پارسا شمسيف. تاشکنت
3. Шарафуддинов О. Алишер Навоий. – Т.: ЎзССР Давлат нашриёти, 1948.
4. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўнинчи том. - Тошкент: Фан, 1992
5. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Насрий баёни билан. - Тошкент: Фафур Фулом, 1991
6. Казакбаева Г. Арабизмы в узбекском языке в прикладном и теоретических аспектах. Дисс. Канд.ф.н.-Москва: Институт востоковедения Российской Академии наук, 2012
7. Вайнрайх У. Языковые контакты. Состояние и проблемы исследования.-Киев: «Высшая школа», 1979.С-22
8. Боровков А.К. Алишер Наваи как основоположник узбекского литературного языка. Алишер Наваи. – М.-Л., 1946.
9. Вестник Московского Университета. Серия 9. Филология №5. Москва. 1996
10. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Маънавият. Тошкент. 2004
11. <https://tadqiqot.uz/index.php/renaissance/article/view/6640>
12. <https://tadqiqot.uz/index.php/renaissance/article/view/7434>